

## O'QITUVCHINING NUTQ MADANIYATI

**Rayhon Xoliqova,**

Vobkent tumanidagi 4-maktab direktori

**Shahnoza Xudoyberdiyeva,**

Vobkent tumanidagi 7-maktab o'qituvchisi

**Ibodot To'rayeva,**

Vobkent tumanidagi 20-maktab o'qituvchisi

**Xonzoda Jumayeva,**

Vobkent tumanidagi 39-maktab o'quvchisi

**Gulhayo Xolmatova,**

Buxoro shahar 13-maktab o'qituvchisi

### **Annotatsiya.**

Bugungi kun muallimidan talab qilinadigan eng muhim ish bu o' quvchilar ongini quruq nazariya bilan cheklab qo' ymay, uni mulohaza yuritishga va fikrlashga undashdir.

Olimlar qadim zamonlardan beri yer yuzida o' zining benihoya ulug' vorligi va noyoblighi bilan insoniyat qalbidan joy olib kelgan yetti mo' jiza haqida so' zlashadi, biroq shunday bo' lsa-da, olamda yana shunday bir buyuk mo' jiza borki, uning betakrorligi yetti mo' jizaning jamiki go' zalligidan kam emas, bu bebaho mo' jiza kitobdir, biroq bu buyuk mo' jizaning qadriga yetmayotganlar, uni anglamayotgan o' quvchi-yoshlar, afsuski, oramizda uchrab turibdi. Nega shunday degan savol tug' iladi? Chunki bugun biz tez sur' atlar bilan o' zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o' ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Bu davrda yoshlarimizni jismonan sog' lom, aqlan teran, ma' naviy yetuk va barkamol inson sifatida tarbiyalash, ularni buyuk ajdodlarimizning munosib avlodi qilib, milliy qadriyatlar ruhida voyaga yetkazish biz ustozlardan ulkan mas' uliyat, yangi g' oyalar va izlanishlarni talab qiladi. Shunday ekan ta' lim-tarbiya jarayonini davr talablariga mos ravishda amalga oshirishning eng zarur omili bo' lmish zamonaviy darsning har biri o' quvchi-yoshlar uchun o' ziga xos quvonch doirasiga aylanishi lozim. Demak bu jarayonda biz o' qituvchilar har bir darsimizning ham qiziqarli, ham mazmunli, ham natijali bo' lishi uchun anchagina ter to' kishimizga to' g' ri keladi.

Men o' z tajribamda hamda boshqa o' qituvchilarning darslarini tahlil qilish jarayonida shuning guvohi bo' ldimki, ona tili darslarida har bir mavzu ipidan-ignasigacha tushuntiriladi, biroq o' tilgan mavzular o' quvchining xotirasidan tezda ko' tariladi. Natijada o' quvchi yangi mavzuni risoladagidek o' zlashtira olmaydi. Zero poydevori mustahkam bo' lmagan imoratning qulashi muqarrardir. O' tilgan mavzularni so' rash o' quvchining darsda olgan bilimlari, shakllangan ko' nikma va malakalari, ma' naviy sifatlarini mustahkamlash, rivojlantirish, takomillashtirishga yordam beradi. Bilimning sifatini oshirishga asos bo' ladi. O' tilgan mavzuni so' rash jarayonining to' g' ri tashkil etilishi yosh avlodning bilimini chuqurlashtirishga, har bir yangi mavzuni teranroq o' rganishga undaydi. Dars jarayoni boshlanganidan so' ng o' tilgan mavzuni so' rashda, o' quvchilar xotirasini charxlash hamda o' rgangan bilimlarini yoddan chiqarmasliklarini ta' minlash maqsadida sinfda o' quvchilar o' rtasida "burchaklar qarama-qarshiligi" va "o' qituvchi-o' quvchi" o' yinini tashkil etish bilan bu muammoning sekin-asta bartaraf etilganiga o' z darslarimda guvoh bo' ldim.

“O’ qituvchi-o’ quvchi” metodi: Bu jarayonda o’ qituvchi sinfni 2 guruhga bo’ ladi:

1)o’ qituvchi guruhi;

2)o’ quvchi guruhi

“ O’ qituvchi” guruhi “ O’ quvchi” guruhiga savol beradi va “ O’ quvchi guruhi javob bersa, g’ olib, bera olmasa, mag’ lub sanaladi, bu jarayon orqali yoshlarda hamkorlik, tezkorlik, mulohaza yuritish xislatlari shakllanadi.

“ Isbotla!” metodi. Ushbu metod yoshlarni kitob varaqlashga majbur qiladi. Bunda o’ quvchi o’ qituvchi tomonidan berilgan nazariy savollarga javob beradi va uning isboti sifatida gap tuzadi, qoidadan so’ ng aytilgan misol mavzuni yaxshi tushunishga yordam beradi. Qoidani dalillash uchun aytilgan misollar esa badiiy asarlardan parchalar yoki mutafakkirlarning ibratli so’ zlari bo’ lmog’ i va bu fikrlar o’ quvchilar tomonidan izlanib topilmog’ i lozim. Bu jarayonda yoshlar ham ko’ proq kitob varaqlaydi, ham buyuk insonlarning, adiblarning so’ zlarini o’ qiganda mulohaza yuritadi, ma’ naviy olami boyiydi, ham o’ tilgan mavzular toshga bitilgan naqsh misoli yoshlar ongida muhrlanadi.

1.Savol: Sodda gap nima?

Javob: Bitta kesimlik belgisiga, mazmun va ohang tugalligiga ega bo’ lgan gap

Misol: Tinchlik va xotirjamlik bilan ichilgan yovg’ on o’ mox xijolat va mashaqqat bilan yeyilgan qandli kulchadan yaxshiroqdir

2.Savol: Qo’ shma gap deb nimaga aytiladi?

Javob: Ikki yoki undan ortiq sodda gapning o’ zaro grammatik va mazmuniy munosabatidan tashkil topgan butunlik

Misol: Kengash va mashvaratsiz saltanatni barcha qilgan ishlari va aytgan gaplari xato bo’ lgan johil odamga qiyoslash mumkin: uning so’ zlari va qilmishlari boshga pushaymonlik va nadomat keltirgay

3.Savol: Gaplarni sodda va qo’ shma gaplarga ajratishga nima asos bo’ ladi?

Javob: Shakllangan kesimlarning nechtaligi

Misol: Men sizdan marhamat so’ rab kelgan emasman—sodda gap  
(kelgan emasman—kesim)

Shayx Sa’ diy aytgancha, dunyoda hayotidan qo’ l yuvg’ uchidek tili uzun kishi bo’ lmas—qo’ shma gap(aytgancha, bo’ lmas—kesim )

4.Savol: Bog’ lovchilar necha guruhga bo’ linadi?

Javob: 2 guruhga, ya’ ni teng va ergashtiruvchi bog’ lovchilarga bo’ linadi

Misol: Musofirlikda boshimga ne kulfatlar solsang ham rozimen, ammo xokimni bu tuproqdan bebahra qilmagaysen!(ammo—teng bog’lovchi)

Ustod, jannatmakon Mirzo Ulug’ bek hazratlari yoqqan ilm shamini o’ chirmoq gunohi azim bo’ lur, zero ilm ahlining g’ animlari bo’ lmish bu mustabid shohlar kelib ketaverar.(zero—ergashtiruvchi bog’ lovchi)

5.Savol: Qo’ shma gap qismlari nima?

Javob:Qo’ shma gapni tashkil etgan sodda gaplar

Misol:Yangi avlodni men bilmayman(1-qism),eski avlod esa meni bilmaydi(2-qism)

6.Savol:Qo’ shma gap qismlari qaysi vositalar yordamida bog’ lanadi?

Javob: 1.Bog’ lovchilar

1.Teng bog’ lovchilar

2.Ergashtiruvchi bog’ lovchilar

Teng bog’ lovchilar 1.Biriktiruv bog’ lovchilari 2.Ayiruv bog’ lovchilari

3.Zidlov bog’ lovchilari 4.Inkor bog’ lovchilari

Ergashtiruvchi bog’ lovchilar 1.Sabab bog’ lovchilari 2.Maqsad bog’ lovchilari

3.Shart bog' lovchilari 4.Aniqlov bog' lovchisi

Bo'lsa, esa, deb so'zlari

-u(-yu), -da, -ki yuklamalari

Nisbiy so'zlar

Shuning uchun, shu sababli, shu tufayli ko'makchili qurilma

7-savol.Qismlarining qanday bog'lovchi vositalar yordamida bog'lanishiga ko'ra qo'shma gaplarning turlari?

Javob: 1.Bog'langan qo'shma gaplar

2.Ergashgan qo'shma gaplar

3.Bog'lovchisiz qo'shma gaplar

Misol: Nechuk adolat qilichingni dam shahzodaday mustabid qonxo'rlar boshiga solasen, dam bu musofir, yanglig' bir bechoraning orzu-umidlarini chil-chil sindirasen!(bog'langan qo'shma gap)

Seton-Tompson hayvonlar haqida shunday asarlar yaratdiki, bunday asarlar Seton-Tompsongacha yaratilmagan edi(ergashgan qo'shma gap)

Bezori va razillarning tabiatida insoniylikdan asar yo'q, hayvonlik va vahshiylik—ularning shiori(bog'lovchisiz qo'shma gap)

8-savol:Biriktiruv bog'lovchilari qo'shma gaplarning qanday munosabatlarda bo'lgan qismlarini bog'lab keladi?

Javob: Payt hamda sabab-natija munosabatini ifodalaydi

Misol: Shu fikrni men tez-tez eslayman va har gal nafsning maqsadiga muvofiq aytilgan har qanday chiroyli so'z, har qanday aqlli fikr ko'ngil "eshigi" dan ichkari olmasligiga ishonaman.(sabab-natija munosabati)

Bobur tasavvufiy zavqdan yiroq yashamagan va doimo o'zini chin darveshlarning muhibi deb bilgan(payt munosabati)

9-savol: Ayiruv bog'lovchilari qo'shma gap qismlarini bog'lash bilan birga ular o'rtasida qanday ma'no munosabatni ifodalaydi?

Javob: Voqea-hodisalarning galma-gal ro'y berishini yoki ulardan birining yuzaga chiqishini ta'kidlaydi

Misol: Qarilik goh yoshlik mayining xumorigidir, goh yigitlikdagi sog'lomlikni hasrat bilan qo'msashdir(voqealarning galma-gal ro'y berishi)

Qarilik yo shod yurgan odamlarni noshod qiladi, yo kishi qaddini bukib, umr bilan xayrlashtiradi(hodisalardan birining yuzaga chiqishi)

Har bir savolning javobi va isbot tariqasidagi misoli bilan aytiladi. Mana shu savollarning har bir darsda soni ko'paysa ko'payadiki, salmog'i aslo kamaymaydi. Men o'z tajribamda kuzatishim bo'yicha mana shu jarayon uchun atigi 7-8 daqiqa vaqt sarflanadi, biroq har bir o'tilgan mavzu o'quvchining ongi va tafakkurida toshga o'yilgan naqsh kabi muhrlanadi. Juda oddiy, ammo nihoyatda samarali bo'lgan bu usuldan har bir Muallim foydalansa maqsadga muvofiq bo'lardi. Zero takrorlash bilimlarning asosidir.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. F.Abdurahmonov, S.Mamajonov.O'zbek tili va adabiyoti. T. "O'zb" 1995- y jarayonida qo'llanishi.Xalq ta'limi 2005-y
2. Abduraimova M. Ona tili ta'limida ilg'or pedagogik texnologiya. – T.: 2005. B.3-26.
3. Y. Ishoqov. So'z san'ati so'zligi. – T.: Zarqalam, 2006.